

Tyuterlar faoliyatiga oid savollar

1. Siz bu ishga kirishdan oldin o'z faoliyatingizga oid nizom bilan tanishdingizmi?
2. Talaba-yoshlar bilan janjalli jarayonda qanaqa yo'l bilan nizoni oldini olish mumkin?
3. Tyutor sifatida o'zingizni qaysi tomoningiz bilan boshqalardan ustun deb bilasiz?
4. Qiyin vaziyatda talaba sizni tinglamasa, qanday yo'l tutasiz?
5. Hayotingizdagi eng katta xatolardan birini eslab bera olasizmi? Undan nima saboq olgansiz?
6. Talaba bilan birinchi muloqotda qanday ta'sir qoldirishni xohlaysiz?
7. Sizningcha, odamning xarakteri va odatlari o'zgaradimi? Misol keltiring.
8. O'zingizni qanday motivatsiya qilasiz, charchagan paytda nimadan kuch olasiz?
9. Agar ota-ona sizni tanqid qilsa, qanday munosabat bildirasiz?
10. Bir vaqtning o'zida tez o'rganuvchi va sust o'rganuvchi talaba bo'lsa, qanday yondashuv qilasiz?
11. Stressli vaziyatda o'zingizni qanday boshqarasiz?
12. Talabalar bilan ishlashda eng ko'p foydalanadigan uslubingiz qaysi?
13. Agar hamkasbingiz siz haqingizda salbiy fikr bildirsa, nima qilasiz?
14. Siz uchun "muvaffaqiyatli talaba" qanday bo'lishi kerak?
15. Jamoada ko'proq yetakchi bo'lasizmi yoki kuzatuvchi? Misol bilan tushuntiring.
16. Talaba darsdan charchaganini aytsa, siz qanday yo'l tutasiz?
17. Hayotingizdagi eng katta orzu nima va uni amalga oshirish uchun nimalar qilayapsiz?
18. Talabani bilim olishga qiziqtirish uchun eng yaxshi usul deb nimani bilasiz?
19. Agar sizni keskin tanqid qilishsa, ichingizda qanday hissiyotlar paydo bo'ladi?

20. Bir kunda odatda kayfiyatingizni 1 dan 10 gacha baholaganda qaysi oraliqda bo'ladi?
21. Sizni ishda eng ko'p ilhomlantiradigan narsa nima?
22. Talaba darsni umuman tushunmasa, unga qanday yondashuv qilasiz?
23. O'zingizning eng kuchli va eng zaif tomonlaringizni ayting.
24. Talabani baholashda adolatni qanday ta'minlaysiz?
25. Qaysi vaziyatda o'zingizni sabr-toqatsiz his qilasiz?
26. Siz uchun tyutorlik kasbi — ishmi yoki missiya? Nega?
27. Bir talaba sizdan yordam so'rasa, lekin boshqa talabalar vaqtini olishini sezsangiz, qanday yo'l tutasiz?
28. O'zingizni rivojlantirish uchun oxirgi o'qigan kitobingiz yoki ko'rgan treningingiz haqida gapirib bering.
29. Talaba bilan kelishmovchilikka borsangiz, qanday hal qilasiz?
30. Sizningcha, yaxshi tyutor talaba hayotini qanchalik o'zgartira oladi?
31. Agar ertaga tyutorlikni tashlab boshqa ish qilishingizga to'g'ri kelsa, eng ko'p nimasini sog'inasiz?
32. Tyuterlarni lavozim yo'riqnomasi bilan tanishmisiz?
33. "Ommaviy madaniyat deganda nimani tushunasiz?"
34. O'zingizni uchta so'z bilan tariflang?
35. Talaba siz uchun kim?
36. Siz o'zingizni Agrar universitetiga mos xodim deb bilasizmi?
37. Besh muhim tashabbus nima?

Shuningdek, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha bilimlaringizni aniqlash maqsadida savollar beriladi.